**XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA SHAHAR KENGASHINING**

**Q A R O R I**

2023 - yil 14 - yanvar VI-79-6-11-169-K/23 Farg‘ona shahar hokimligi

# “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktyabrdagi 295-son qaroriga muvofiq Farg‘ona shahridagi nomsiz ko‘chalarga nom berish va nomi takroriy bo‘lgan ko‘chalarni qayta nomlash borasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida

“Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktyabrdagi “Geografik obyektlarning nomlarini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 295-son qaroriga asosan, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022-yil 13-sentyabr kungi “Farg‘ona viloyatining Uchko‘prik, O‘zbekiston, Dang‘ara, Qo‘shtepa, Toshloq, Farg‘ona tumanlari va Qo‘qon, Marg‘ilon, Farg‘ona shaharlari chegaralarini o‘zgartirish to‘g‘risida”gi SQ-624-IV-son qarori hamda Farg‘ona viloyati hokimining 2022-yil 17-noyabr kungi 366-01-0-F/22-son farmoyishiga asosan Farg‘ona tumanidan Farg‘ona shahriga qo‘shilgan O‘rta sho‘ra, Cheksho‘ra va Ilg‘or mahalla fuqarolar yig‘inlari hududidagi 37 ta ko‘chalar hatlovdan o‘tkazildi. Shunga ko‘ra, Farg‘ona shahar hokimligi huzuridagi Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasi tomonidan hatlov natijalariga asosan nomsiz hamda nomlari takroriy deb topilgan ko‘chalar bo‘yicha taklif tayyorlanib, Farg‘ona viloyati hokimligi huzuridagi Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasiga hamda Respublika toponimika xizmatiga “Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqida” ekspert xulosasini olish uchun yuborildi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasi tomonidan olib borilgan o‘rganish natijasiga ko‘ra,

shuningdek, tegishli qonun hujjatlari talablaridan kelib chiqib, Farg‘ona shahar komissiyasining geografik obyektlarni qayta nomlash bo‘yicha bergan takliflari qonun talablariga muvofiq deb topilib, belgilangan tartibda ijobiy xulosalar olindi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, shuningdek, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 24-moddasiga asosan Xalq deputatlari Farg‘ona shahar Kengashi,

**Q A R O R Q I L A D I:**

**1.** “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktyabrdagi 295-son qaroriga muvofiq Farg‘ona shahridagi nomsiz ko‘chalarga nom berish va nomi takroriy bo‘lgan ko‘chalarni qayta nomlash borasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi Farg‘ona shahar hokimining maslahatchisi F.Mamajonovning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

**2.** Farg‘ona shahar komissiyasi tomonidan geografik obyektlarni qayta nomlash bo‘yicha taqdim etilgan hamda qonun talablariga muvofiq deb topilgan geografik obyekt (ko‘cha) nomlari ilovaga asosan tasdiqlansin, shuningdek, belgilangan tartibda davlat reyestri bazasiga kiritilsin.

**3.** Belgilansinki, ushbu qaror ommaviy axborot vositalarida rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

**4.** Mazkur qaror bajarilishiga Kadastrlar palatasi Farg‘ona shahar filiali rahbari O.Karimov shaxsan mas’ul ekanligi belgilab qo‘yilsin.

**5.** Ushbu qaror bajarilishining nazorati Xalq deputatlari Farg‘ona shahar Kengashining Ta’lim, sog‘likni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya bo‘yicha doimiy komissiya raisi Sh.Siddiqova hamda Farg‘ona shahar hokimining maslahatchisi F.Mamajonovlar zimmasiga yuklansin.

**Kengash raisi** **V.Nazarov**

Xalq deputatlari Farg‘ona shahar
Kengashining
2023 yil 14 yanvardagi
VI-79-6-11-169-K/23-son qaroriga
1-ilova

# Farg‘ona shahri bo‘yicha yangi nom berilayotgan hamda qayta nomlanayotgan geografik obyekt (ko‘cha)lar to‘g‘risida

## MA’LUMOT

| № | Geografik obyektning turi | Geografik obyektning bog‘lanishi | Geografik obyektning amaldagi nomi | Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif | Izoh |
|---|---|---|---|---|---|
| I | II | III | IV | V | VI |
| 1. | Ko‘cha | O‘rta sho‘ra MFY | O‘rta sho‘ra | **Mukammallik** | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 2. | Ko‘cha | O‘rta sho‘ra MFY | Nafosat | **Ziynat** | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 3. | Ko‘cha | O‘rta sho‘ra MFY | Ziyokor | **Ziyonur** | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 4. | Ko‘cha | O‘rta sho‘ra MFY | Nomsiz (Mehnatobod) | **Tulpor** | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 5. | Ko‘cha | O‘rta sho‘ra MFY | Tantana | **Ehtirom** | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 6. | Ko‘cha | O‘rta sho‘ra MFY | Hamdo‘stlik | **O‘zbegim** | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 7. | Ko‘cha | O‘rta sho‘ra MFY | Yoshlar | **Iqtidor** | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 8. | Ko‘cha | O‘rta sho‘ra MFY | Shifokorlar | **Malham** | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 9. | Ko‘cha | O‘rta sho‘ra MFY | Tadbirkorlar | **Chorbog‘** | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 10. | Ko‘cha | O‘rta sho‘ra, Cheksho‘ra MFY | Vodiy | **Karvon** | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 11. | Ko‘cha | O‘rta sho‘ra, Cheksho‘ra MFY | Nomsiz (Farg‘ona) | **Charog‘on** | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 12. | Ko‘cha | Cheksho‘ra MFY | So‘lim | **Fazilat** | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 13. | Ko‘cha | Cheksho‘ra MFY | Meros | **Boqiy** | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 14. | Ko‘cha | Cheksho‘ra MFY | Moziy | **Bag‘rikenglik** | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 15. | Ko‘cha | Cheksho‘ra MFY | Nomsiz (Saxovat) | **Tafakkur** | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |

| № | Geografik obyektning turi | Geografik obyektning bog‘lanishi | Geografik obyektning amaldagi nomi | Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif | Izoh |
|---|---|---|---|---|---|
| I | II | III | IV | V | VI |
| 16. | Ko‘cha | Cheksho‘ra MFY | Baxt | **Zamin** | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 17. | Ko‘cha | Cheksho‘ra MFY | O‘rikzor | **Zabardast** | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 18. | Ko‘cha | Ilg‘or MFY | Yangi asr | **Sofdil** | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 19. | Ko‘cha | Ilg‘or MFY | Obod turmush | **Shijoat** | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |